



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Xo'jamqulova Nafisa<sup>1</sup>

<sup>1</sup> O'zbekiston –Finlandiya Pedagogika institute, Pedagogika fakulteti  
o'qituvchisi

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA SINFDAN TASHQARI O'QISH MASHG'ULOTLARIDA SHEVAGA XOS SO'ZLARNI O'RGATISHDA “PIRLS” MASHQLARINI QO'LLASH

**Annotatsiya:** Hozirgi ta'lim tizimida xalqaro tadqiqotlari doirasida turli ta'lim tizimiga ega bo'lgan davlatlar bugungi kunda o'quvchilarining o'qish sifati va o'qilgan matnni tushunish darajasi o'rganiladi. Aynan xalqaro tadqiqotlarga 4-sinf o'quvchilarining tanlanishi shu bilan e'tiborliki, o'qishning bu davrda to'rtinchi yilida o'quvchilar o'qishning yuqori darajasiga ega bo'lishi, ularning keyingi ta'limda bilimni egallash qobiliyatini shakllantirish ta'lim tizimidagi ba'zi yutuqlarni qo'lga kiritishiga zamin yaratadi.

**Kalit so'zlar:** o'qish savodxonligi, PIRLS tadqiqoti, xalqaro baholash jarayonlari.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'i Ulug'bek Tashkenbayev hamda Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA – International Association for the Evaluation of Educational Achievement)ning Amsterdamdagi direktori Andrea Netton o'rtasida O'zbekistonning PIRLS-2021 baholash tizimida ishtirok etishi yuzasidan 25-yanvar kuni ilk rasmiy uchrashuv tashkil qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan xalqaro baholash tadqiqotlar, jumladan, OECD tashkiloti bilan PISA-2021 xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etish bo'yicha kelishuvga erishilgan edi.

**PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study — xalqaro o'qish savodxonligini o'rganishdagi yuksalish) — bu turli mamlakatlarda boshlang'ich sinfda**

**tahsil oluvchi o'quvchi yoshlarning matnni o'qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir.** Ushbu sinov turi har 5 yilda bir marta o'tkazishga mo'ljallangan bo'lib, uning oxirgi 2016-yilgi tadqiqotlari natijalariga ko'ra Rossiya Federatsiyasi yetakchilik qilmoqda.[14]

Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi butun dunyo bo'ylab ta'limni baholash, tushunish va yaxshilash bo'yicha ish olib boradigan milliy tadqiqot institutlari, tadqiqot agentliklari, olimlar va tahlilchilarning xalqaro hamkoridir. Mazkur notijorat va mustaqil tashkilot tarmog'ida 60 dan ziyod mamlakatlar hamda 100 dan ortiq ta'lim muassasalari ishtirok etmoqda. 1958-yildan buyon IEA o'quvchilarning matematika, tabiiy fanlar hamda o'qish salohiyati bo'yicha savodxonliklarini baholash jarayonida ta'lim tizimidagi kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar hamda maqbul tavsiyalar yaratishi bilan boshqa xalqaro tashkilotlardan ajralib turadi.

25-yanvardagi uchrashuvda PIRLS dasturining 2021-yil uchun mo'ljallangan tadqiqotlarida O'zbekistonning ishtirok etishi tashabbusi IEA tashkiloti tomonidan katta olqishlar bilan qarshi olindi va tashkilot tomonidan barcha kerakli yordam va tavsiyalar berilishi ta'kidlandi. Shuningdek, yig'ilishda PIRLS-2021 tadqiqotlarida ishtirok etish bilan bog'liq tashkiliy masalalar, ya'ni ishtirok etish shartlari, tadqiqotlarni amalga oshirish bosqichlari, tadqiqotlarning samarali tashkil etishiga qaratilgan yo'riqnomalar va boshqa ko'plab vazifalar atroflicha muhokama qilindi.

Ko'pchilik davlatlarda bolalar 6 yoshdan maktabda o'qishni boshlashadi. Ammo Angliya va Yangi Zelandiyada ta'lim 5 yoshdan boshlanadi. Shuning uchun, loyihada 4-sinfdan emas 5-sinfdan o'quvchilar ishtirok etishadi. O'qish va matnni tushunish sifati tekshiriladigan o'quvchilarning yoshi 10,5 yoshni tashkil etadi. Sharq mamlakatlarida bolalar 7 yoshdan o'qishni boshlagani uchun ulardan 10,7-10,9 yoshdagi o'quvchilar tadqiqotda ishtirok etishadi. [13]

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi va matnlar bilan to'liq ishlash uchun zarur bo'lgan o'qish qobiliyatlarini shakllantirishdir muhim omil sanaladi. Bu uchun o'qituvchi dars jarayoniga tayyor holatda kelishi ma'lumotlarni topish va tarqatish, matnning ma'lum qismi bo'yicha xulosalar chiqarish, asosiy belgilarning harakatlarini sharhlash, matn namunalari va matn tuzilishini dastlabki tahlil qilish bilan tasdiqlash zarur bo'ladi.

**PIRLS** tadqiqotlarida darsda o'quvchilar tomonidan eng ko'p qo'llaniladigan o'qishning quyidagi ikki turi o'rganiladi:

1. Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadidagi o'qish.
2. Mazmunni tushunish va amalda foydalanish maqsadidagi o'qish.

O'quvchilarga ikki xil topshiriq beriladi:

1. Adabiy o'qish tajribasini o'rganish;
2. Axborotni ishlab chiqish va undan foydalanish.

PIRLS o'rganish monitoringi bo'lganligi va uning asosiy vazifalaridan biri o'qish sifati dinamikasini o'rganish bo'lganligi sababli, o'qish uchun zarur shart bu har bir qismda matnlar va ularga berilgan topshiriqlarning bir qismini qayta ishlatishdir.[7]

### Hikoyani o'rgatishning metodik shartlari

Boshlang'ich Sinflarning Sinfdan Tashqari O'qish Darslarida Garchi Ilmiy Jihatdan Bo'lmasa-Da, Amaliy Jihatdan Turli Janrga Mansub Asarlar O'qib O'rganiladi. Sto' Darsliklariga, Asosan, Hikoya, She'r, Ertak, Masal, Maqol, Doston, Rivoyat Va Topishmoq Kabi Janrdagi Asarlar Kiritilgan. Bulardan Tashqari, Ilmiy-Ommabop Asarlar Ham O'qitiladi.

Turli janrdagi badiiy asarlar qurilishi, uslubi jihatidan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning o'quvchilarga ta'siri ham har xil bo'ladi. Tabiiyki, har bir janrga oid asar matni lingvistik jihatdan ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, she'riy asarlar matni hikoya matnidan, ertak matni she'r matnidan, ilmiy-ommabop maqola matni masal janriga taaluqli asarlar matnidan tubdan farq qiladi. Topishmoqlar predmet, voqea-hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikni taqqoslash orqali o'zlashtirilsa, maqollar mazmuni hayotiy misollar vositasida sharhlashni taqozo etadi. Shunga ko'ra, turli janrdagi badiiy

Hikoya kichik hajmli badiiy asar bo'lib, unda kishi hayotidagi ma'lum bir voqea, hayotning muhim tomonlari umumlashtirib tasvirlanadi.

«Hikoya ko'pincha kishi hayotida bo'lgan bir epizodni tasvir etadi. Uning mazmunini ertakdagidan ortiqroq hayotiydir»<sup>1</sup>.

Hikoya mazmunan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos janr hisoblanadi. Kichik yoshdagi o'quvchilarni qahramonlarning xatti-harakati, tashqi ko'rinishi, portret tasviri, voqea-hodisalari haqidagi hikoyalar ko'proq qiziqtiradi. SHuning uchun bolalarni badiiy asar turi bo'lgan hikoya bilan tanishtirish uning syujetini tushuntirishga bog'lab olib boriladi.

Hikoyani o'qishga bag'ishlangan izohli o'qish darslarida o'qilgan hikoya mazmunini ochish, lug'at ustida ishlash, o'qilgan matnni qayta hikoyalash kabilar asosiy ish turlaridan hisoblanadi. Hikoya mazmuni odatda savollar asosida tahlil qilinadi. So'roqlardan ikki maqsadda: hikoya mazmunini tahlil qilish hamda dalillar, mulohazalar, xulosalarni taqqoslash, voqea-hodisalar, xatti-harakat o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash va umumlashtirish uchun foydalaniladi.

Hikoyani o'qish darsida o'quvchilar tushunmaydigan so'z va iboralar ma'nosini tushuntirish ham muhim, aks holda ular hikoya mazmunini tushuna olmaydilar.

Hikoyani o'qishda uning mazmunini tahlil qilish va shu asosda o'quvchilar nutqini o'stirish markaziy o'rin egallaydi. Hikoya o'qib bo'lingach, o'quvchilar o'ylashi, o'z mulohazalarini aytishi uchun tayyorlanishga vaqt berish kerak. O'qilgan asar yuzasidan beriladigan dastlabki savollardan maqsad hikoya bolalarga yoqqan-yoqmaganligi, undagi qaysi qahramonning xarakteri bolaga ta'sir etganini bilishdan iborat. SHundan keyingina hikoya syujeti, voqeaning yo'nalishini ochishga, personajlar xarakterini tushunishga, nihoyat, asarning asosiy g'oyasini bilib olishga yordam beradigan savollardan foydalaniladi.

Badiiy asarni tahlil qilishda syujetni to'liq tushuntirishga berilib ketib, qahramonlarga tavsif berish, asar qurilishi va tilini tahlil qilish kabi ish turlari e'tibordan chetda qolmasligi lozim.

Ertak janriga xos matnlar jozibadorligi bilan bolani o'ziga tortadi. Lekin, hikoya janri ham hayotiyligi bilan o'ziga xos. Hikoyada voqealar tez rivojlanib boradi. Unda inson hayoti, u bilan bog'liq hayotiy lavhalar bayon etiladi. O'quvchilar qahramonlarning xarakteri,

ulardagi xususiyatlar bilan qiziqadilar. Masalan, 3-sinf «O‘qish kitobi»dagi «*Dadam qurgan dengiz*» (Hakim Nazir), «*Olma*» (Malik Murodov), «*Ilmi ming yashar*» (Nurmat Maqsudiy), «*Xazonchinak*» (O‘. Hoshimov), «*Qo‘shterak*» (A. Irisov) va boshqa qiziqarli hikoyalar berilgan. Ular mavzu jihatdan xilma-xil bo‘lib, qahramonlarining xarakter-xususiyatlari bilan ham farq qiladi.

Hikoya biror bir davr bilan bog‘liq bo‘ladi. O‘quvchilar qahramonlarning ma’naviyatiga bo‘lgan qiziqishlari tufayli hayotning nurli va qorong‘i tomonlari xususida muayyan tushunchaga ega bo‘la boshlaydilar. Ularda go‘zallik va nafosatga muhabbat, yovuzlikka nisbatan nafrat tuyg‘usi hikoyalar bilan tanishish va uni tahlil qilish davomida shakllanib boradi. Masalan, 3-sinfda «*Jaloliddin Manguberdi*» hikoyasida CHingizxon va uning qo‘shinlariga nisbatan nafrat uyg‘otilsa, Jaloliddin Manguberdining xatti-harakati orqali ona-Vatanga mehr-muhabbat uyg‘otiladi, uning taqdiri orqali o‘z ajdodlaridan faxrlanish tuyg‘usi paydo bo‘ladi.

Hikoya tahlili adabiy tur sifatida o‘ziga xos xususiyatlari va vazifasidan kelib chiqib ish ko‘rishni taqozo etadi. Undagi har bir so‘z, ibora, gap yozuvchining fikrini ifodalashga xizmat qiladi.

Hikoya matni uning mazmunini yoki badiiy xususiyatlarini o‘rganishdagina emas, tahlilning ifodali, adabiy, shartli yoki ijodiy o‘qish, muammoli usullardan foydalanish uchun ham manba bo‘lishi lozim.

hikoya syujeti, kompozitsiyasi, qahramonlarini o‘rganish bo‘yicha turli tahlillar matn ustida ishlash asosida olib boriladi. Bunda o‘quvchining ijodiy faolligi ortadi, ijodiy fikrlash doirasi kengayadi.

### **Hikoyani o‘rgatishning metodik shartlari quyidagicha amalga oshiriladi:**

1. Matn mazmuni yuzasidan o‘qituvchi savollariga javob berish.
2. Hikoya matni asosidagi savol-topshiriqlarni bajarish.
3. Hikoya mazmuni yuzasidan o‘quvchilarning savollar tuzishi.
4. Hikoya mazmuniga mos rasmlar chizish.
5. Hikoya matnini qismlarga bo‘lish.
6. Har bir qismga sarlavha topish.
7. Hikoyaga reja tuzish.
8. Reja asosida qayta hikoyalash (to‘liq, qisqartirib va ijodiy qayta hikoyalash).
9. Reja asosida bayon yozish.

Tahlilda o‘qilayotgan hikoya matnining tushunarligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. **Tushunarlilik** deganda yozuvchi yaratgan badiiy olamning o‘ziga xosligi, obrazli tasvirning o‘quvchi hayotiy tajribasi, bilim darajasiga muvofiqligi nazarda tutiladi. Hikoyani o‘rganishda savollarni, odatda, o‘qituvchi beradi, ammo asar mazmuni, qatnashuvchi shaxslarning xulq-atvorini ochish yuzasidan o‘quvchilarga ham savol tuzdirish juda foydali. Bu usul bolalarga juda yoqadi va ishni jonlantiradi, asar mazmunini yaxshi tushunish, o‘z fikrini izchil bayon qilish malakasini egallash, mazmun va voqealar orasidagi bog‘lanishni to‘liq esda saqlab qolishda o‘quvchilarga yordam beradi.

#### **4-sinf o‘qish darsliklaridagi sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlarida qo‘llash jarayonini ko‘rib o‘tamiz**

4-sinf o‘qish darsliklaridagi sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlarida PIRLS tadqiqoti uchun adabiy kitobxonlik malakasini egallash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar berish maqsadida 4-sinf o‘qish darsida STO‘ kitobidan G‘ofur G‘ulomning “Shum bola” hikoyasi uchun topshiriqlar tayyorlash va bu topshiriqlarning maqsad va vazifalari, ular ustida ishlash texnologiyasini ko‘rib chiqamiz va bu yerda namunaviy javoblari ham keltirilmoqda.

#### **Topshiriqlar**

##### **1-topshiriq: “Shum bola” deganda qanday bolalarni tasavvur qilasiz izohlang.**

**Javob:** Bu jumla o‘zbek xalq iborasidir. Bu keng ma‘noni qamrab oladi, o‘z ishiga pishiq, puxta vaziyatdan chiqib keta oladigan bola.

**Maqsad:** Ushbu topshiriq o‘quvchilarda o‘zbek iboralarining mazmuni bilan kengroq tanishib borishlariga, lug‘at boyliklarini oshirishga xizmat qiladi.

##### **2-topshiriq: Hikoyaning qisqacha mazmunini yozing.**

**Javob:** hikoyaning mazmunini qisqacha yozing

**Maqsad:** Hikoyani qayta so‘zlash orqali o‘quvchilar har bir gapni to‘g‘ri analiz qilishga o‘rganishadi, bayon yozish kompetensiyasi shakllanib boradi.

##### **3-topshiriq: Matndagi bolakayga ta‘rif bering.**

**Javob:** Tinib-tinchimas vaziyatdan chiqib keta oladigan va o‘z yaqinlarini qadrlamaydigan bola.

**Maqsad:** Asar qahramonlariga ta‘rif berish orqali insonlarni o‘rganib, insonlardagi salbiy va ijobiy xislatlarni taqqoslash va farqlashga o‘rganishadi.

##### **4-topshiriq: Bolaning oila a‘zolarini hurmat qilmasdan to‘g‘ri ish qildimi? Fikringizga 3 ta isbot keltiring.**

**Javob:**

1. Yo‘q, chunki oila muqaddas dargohdir.
2. Ota-onamiz bizni kichikligimizdan oq yuvib, oq tarab, katta qilishadi.
3. Biz ham ota-onamizga munosib farzand bo‘lib ularni hayotligida qadrlashimiz zarur.

**Maqsad:** O‘quvchilarni aniq va asosli gapirishga o‘rgatish bilan birga kelajakda maqsadli yashashga o‘rgatadi.

##### **5-topshiriq. Matnga yana qanday sarlovha qo‘yish mumkin? Asoslang.**

1-variant: “Bolakayning boshidan o‘tkazganlari ”

**Asos:** Chunki, bu matnda shum bola ko‘p voqealarni boshdan kechiradi

2-variant: “Mehrsiz o‘g‘il”

**Asos:** Chunki, bu matnda shum bola onasini yaxshi ko‘rishini ko‘rsatadi, mehribon va qalbi toza bola ekan.

3-variant: “Qaytar dunyo”

**Asos:** O‘g‘ilning onasiga qilgan munosabati, o‘z o‘g‘lidan qaytadi.



**Maqsad:** O'quvchilar o'qigan asarlarini tahlil qilishga o'rgatish.

**6-topshiriq: Test.**

1. Shum bolaning asli ismi kim?

A) O'g'il B) Qoravoy D) Dilshod

2. Shum bolaning do'stining ismi kim?

A) Omon B) Shodi D) Rizamat

**7-topshiriq:** Shum bolaga o'xshash bolalar bugungi kunda ham uchrab turadimi?

**Javob:** Shum bolaga o'xshash bolalar oramizda judayam ko'plab topiladi

**8-topshiriq.** Alisher Navoiyning ota-onalar haqidagi yana qanday misralarini bilasiz?

**Javob:** Onalarning oyog'i ostidadur,

Ravzai jannat jinon bog'i.

Ravza bog'in visolin istar ersang,

Bo'l, onalar oyog'in tuprog'i.

**Maqsad:** Topshiriq buyuk ajdodlarimiz ijodi bilan tanishtirib, Alisher Navoiy ijodiga qiziqishlariga xizmat qiladi.

**9-topshiriq.** "Shum bola" asarida uchraydigan so'zlarning ma'nosiga izoh bering?

Qo'r- mayda cho'g' aralash issiq kul

Chiyratma- pishitilgan, chiylangan, toblangan

G'uj-bir joyga to'plamoq

Miri-1. Besh tiyin 2.mufassal ravishda mayda chuydasigacha

Devkor salloxlarday- bahaybatli qassob

Basharamgacha- yuzumgacha

Sag'ri kovush-ot, eshak, qoramol kabilarning orqa oyog'idan tikilgan kovush

G'ayni- bilmadim?

**Maqsad:** Bu kabi topshiriqlar, o'quvchilarda lingvistik kompetensiyani shakllantirish bilan birga, ularni har bir ishga mas'uliyat bilan qarashga, o'z-o'ziga savol berishga, o'z-o'ziga hisob berishga o'rgatadi.

**10-topshiriq: Farzandning ota-onalari oldidagi 5 ta burchini yozing.**

**Javob:**

1. Ota-ona keksayganda ehtiyot qilish, boqish, holidan xabar olish.

2. Ota-ona bemor bo'lib qolsa davolatish.

3. Ota-onadan norozi bo'lmaslik.

4. Bir ish boshlashdan oldin ota-onaning ruxsatini, duosini olish.

5. Ota-onaning biror orzu-niyatlari bo'lsa, uni bajarish.

**Maqsad:** Topshiriq o‘quvchilarga har bir insonning ota-ona, oila, mahalla, Vatan oldidagi burchini doimo his qilishi lozimligini o‘rgatadi.

**11-topshiriq: Ota-onaning farzandi oldidagi 5 ta eng muhim vazifasini yozing.**

**Javob:**

1. Farzandiga yaxshi, chiroyli ism qo‘yish.
2. Farzandini ilmiy qilish.
3. Farzandini yaxshi xulqli qilib tarbiyalash.
4. Farzandi voyaga yetguncha ehtiyot qilish, boqish, holidan xabar olish.
5. Farzandini uyli, oilali qilish. [13]

**12-topshiriq: Eski bozor manzarasini chizing? Bular haqida nimalar bilasiz?**

**Javob:** Ming yillar ilgari ota-bobolarimiz bozor ishlarini yuritishgan.

**Maqsad:** Bu topshiriq orqali o‘quvchilarda eski yashash tarzi shu davrdagi bozor muhiti haqida tasavvurga ega bo‘ladilar

Xalqaro tadqiqotlar sarasiga kiruvchi PIRLS topshiriqlari yetuk tajribaga ega xalqaro ekspertlar tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, bunga o‘xshash topshiriqlarni ishlab chiqish uchun tizimli va maxsus bilim talab etiladi. Xalqaro tadqiqot talablariga qo‘yiladigan talablarga rioya qilmasdan tuzilgan topshiriqlar o‘quvchilarga yordam berish o‘rniga ularni chalkashtirishi mumkin. Shuning uchun xalqaro tadqiqot sinovlariga o‘quvchilarni tayyorlashda asosiy e‘tiborni alohida olingan topshiriqlarni yechishga emas, balki ularni va ularga o‘xshagan topshiriqlarni yechish uchun kerak bo‘ladigan o‘quvchilarning umumiy tayyorgarlik darajasini oshirishga qaratilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida, o‘qish savodxonligi xalqaro talablarga mos tarzda oshirish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining uchun milliy va ilg‘or tajribalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, bu jarayonda o‘quvchilarning mustaqil ta‘lim olishlarini ham yo‘lga qo‘yish, ta‘lim tizimining ustivor vazifasi sanaladi.

**Adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonuni. Toshkent. 2020-yil, 23-sentabr
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori.
3. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta‘lim samaradorligini oshirish yo‘llari.–T.:Nizomiy nomidagi TDPU, 2004, 2008 (qayta nashr). – 44 b.
4. Ishmuhamedov R. O‘quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash uslubiyati. – T.: RBIMM, 2008. – 68 b.
5. Ковалева Г.С., к.п.н., Красновский Э.А., к.п.н., Краснокутская Л.П., к.ф.-м.н., Краснянская К.А., к.п.н. Международная программа PISA. Примеры заданий по чтению, математике и естествознанию. Центр оценки качества образования ИОСО РАО, 2003 г.

6. Norpo‘latova X. “O‘quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirish metodikasi” T.: “Kasb hunar” jurnali, 2010- yil №3.
7. Rabbonayeva D.T. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matnni o‘zlashtirish darajasini takomillashtirish usullari”.Umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun uslubiy ko‘rsatma. – Samarqand VXTXQTMOHM- 2020-yil.
8. Rabbonayeva D.T. “PIRLS tadqiqoti uchun topshiriqlar tayyorlash va ular ustida ishlash texnologiyasi:. O‘quv-uslubiy qo‘llanma - Samarqand XTXQTMOHM -2020-yil.
9. Shodiyev Fakhridin Teshaeovich. ALISHER NAVOI'S INTERPRETATION OF GLOBAL IDEAS ON HUMAN PERFECTION. 542-550. 10.5958/2249-7137.2021.02536.2. <https://saarj.com/wp-content/uploads/paper/ACADEMICIA/2021/ABSTRACT/ACADEMICIA-NOVEMBER-2021/11.15,%20A.%20Avloni.pdf>. p.546.
10. Amrilloevich, I. A. (2022). Problem-Based Learning: Content, Essence, Possibilities. *Journal of Positive School Psychology*, 6(10), 2367-2377.
11. Baxranovna R. M. BOSHLANG‘ICH TA’LIM MATEMATIKA DARSLARIDA QADRIYATLAR ORQALI O ‘QUVCHILARNI MA’NAVIY TARBIYALASH //INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. – 2022. – T. 3. – №. 2. – C. 130-135.
12. Jamilovna, N. D. (2021). SINFLAR RAHBARINING KOMPETENTLIGINI OSHIRISH YO ‘LLARI. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 2(4), 118-125.
13. Sharipboyevna, F. G. (2022). ADABIY TA’LIM DASTURLARIDA MAZMUNNING IFODALANISHI VA UZVIYLIK SHAKLLARINI QO ‘LLASH. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 894-900.